



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-57-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

**“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga
2025-yilning I choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib
tushgan murojaatlar tahlili to‘g‘risida”gi Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Xalq
qabulxonasi mudiri Z.Abdullayev axboroti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvaridagi “Aholi muammolari bilan ishslash tizimining yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633 sonli Farmonini ijrosini ta‘minlash maqsadida Kattaqo‘rg‘on tumanda yashovchi fuqarolaridan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga 2025-yilning I choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar tahlili to‘g‘risida”gi Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axborotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi”gi Qonuning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga 2025-yilning I choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar tahlili to‘g‘risida”gi Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlari hamda tuman korxona va tashkilotlar rahbarlariga: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvaridagi “Aholi muammolari bilan ishslash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-sonli farmonidan kelib chiqib, quyidagilar tavsiya etilsin;

- tumandagi fuqarolardan kelib tushayotgan har bir murojaatni O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ko‘rib chiqilishini, murojaatlarda ko‘rsatib o‘tilgan masalalar tegishli mutaxassislar tomonidan to‘liq va sifatli o‘rganib chiqilib, ijobiy hal etilishini ta‘minlash;

- har bir murojaat ijro etuvchi tashkilot va idora rahbarlarining nazoratida bo‘lishi, takroriy murojaatlarning oldini olish maqsadida murojaatlarni mualliflar ishtirokida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish;

- hududlarda o‘tkaziladigan sayyor qabullarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida, qabullarga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rib, aholini o‘tkaziladigan qabul

haqida xabardor etish orqali jalb qilish hamda qabullarda kelib tushgan murojaatlarni joyida ijrobiy hal etish shu bilan birga nazoratga olingan murojaatlarni ijrosini to‘liq ta’minlash;

-og‘ir hududlardagi aholini qiyab kelayotgan hamda ijtimoiy soha va boshqa obyektlarda aniqlangan dolzarb muammolarni aniqlash va hal etish choralarini ko‘rish;

-og‘ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar, yoshlar bo‘yicha uchrayotgan muammolarni hal etilishi va aholini bandligini ta’minlash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rish; hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o‘rganish orqali muammolarni aniqlash va hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishni ta’minlash;

-aholi murojaatlari va muammolari eng ko‘p tushgan mahallalarda Xalq qabulxonasi bilan birgalikda mahalla yettiligi va tegishli tashkilot rahbarlari ishtirokida sayyor qabullar o‘tkazib borish;

-har bir mahalla fuqarolar yig‘ini binolarida fuqarolar ko‘rishi uchun qulay joylarga xalq deputatlari tuman Kengashi deputati, tashkilot va idora rahbarlarining telefon raqamlarini joylashtirish orqali, fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlarni hal etishga mas’ul bo‘lgan rahbarlarga murojaat etish imkoniyatini yaratish;

-mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tumandagi barcha korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, mahalla fuqarolar yig‘inlarining yettiliklariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va xalq qabulxonasiga fuqarolar tomonidan yo‘llangan murojaatlari O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida amaldagi tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilishiga shaxsan mas’ulligi ko‘rsatib o‘tilsin;

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyyati (M.Teshayev) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (G’.To‘ychiyev), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Sultonov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov) murojaatlar bilan ishslashda sustkashlikka yo‘l qo‘yanligi sababli tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamaga kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Djurayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKNOVICH